

**PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)**

**Tuproqqal'a tumani**

**«27» iyun 2022y.**

**Tuprokkala tuman Xokimligi** keyingi urinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi **A.Salaev** bir tomondan, keyingi urinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **"ALMERIN" MCHJ** nomidan nizom asosida ish kuruvchi **Z. Duschanov** ikkinchi tomondan « joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» buyicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

**I. TA'RIFLAR**

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar kulaniladi:

- ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bulgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan uzgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofikligi tugrisidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt kurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va urnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda kulaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiklovchi boshka xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiklanganligi tugrisidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oralik davrda kabul kilinishi tugrisidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi tugrisidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda kurilish normalari va koidalarida nazarda tutilgan boshka xujjatlar;
- kurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning kurilish maydoni chegarasi ajratib kuyiladi yoki bosh rejaga muvofik belgilanadigan boshka belgilar bilan belgilab kuyiladi;
- vaktinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan kurilish maydonida urnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bulgan xar kandy tipdagi vaktinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlar** – sifati va anikligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniklash mumkin bulmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- shartnoma narxini bulib chikish** – ishlarning xar bir boskichi va yoki turlari kiymatini anik belgilagan xolda shartnoma buyicha ob'ektning umumiy kiymatini boskichlarga taksimlash.

**II. SHARTNOMA MAVZUSI.**

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofik **Tuprokkala tumanidagi "Munis Al-Xorazmiy nomidagi markaziy istirohat bog'ini bir qismini ta'mirlash"** kuzda tutilgan loyixa xujjatlari buyicha **ishlarini bajarish** majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni kabul kilish va tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**III. SHARTNOMA BUYICHA ISHLAR KIYMATI.**

3. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar kiymati barcha soliklar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshka xarajatlarini uz ichiga olgan xolda joriy narxlarda KKS bilan **955 685 236 (To'qqiz yuz ellik besh million olti yuz sakson besh ming ikki yuz o'ttiz olti)** summi tashkil etadi.
4. Ishlar kiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik kayta kurib chikilishi mumkin emas, kuyidagi xollar bundan mustasno:
  - kurilish kiymatini kupaytirishga engib bulmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bulganda;
  - ishlar kiymati Buyurtmachi tomonidan uzgartirilganda;
  - ob'ektning kurilishi bir yildan ortik muddatga uzgartirilganda.
5. Kurilish muddati bir yildan ortik bulganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniklashtirish konun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bulganda, sanab utilgan uzgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi ortasidagi shartnomaga kushimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

**IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.**

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bulimida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarishda nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda uzining kuchlari yoki jalb kilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachi xamda mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;
  - kurilish maydoniga zarur kurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, kurilish texnikasini etkazib berish, ularni kabul kilish, tushirish, omborga joylash va saklashni ta'minlaydi;
  - kurilish maydoni xududida vaktinchalik inshootlar kurish;
  - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili tugrisida xabardor kilish;
  - kurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaktida atrof muxitni, utkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muxofaza kilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroklari urnatish;
  - kurilish tavakkalchiliklarini sugurta kilish;
  - mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga kabul kilib olish tugrisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda kurilish maydonini uziga tegishli kurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, kurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaktinchalik binolardan bushatish;
  - kurilish maydoni kuriklanishini ta'minlash;
  - kurilishda tavakkalchilik sugurtasi uchun belgilangan summaga sugurta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sugurtasi tugrisida shartnoma tuzadi va sugurta shartnomasi bilan sugurta polisini byurtmachiga takdim kiladi.
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni tulik xajmda bajarish majburiyatini uz zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan uzining 20% ga teng bulgan va unga xizmat kursatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada kuzda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.
  9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) tulik xajmda takdim kiladi.
  10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning uz kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida tulik mulkiy javob beradi.

**V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish uchun yarakli bulgan kurilish maydonini ob'ekt kurilishi va kurilish tugallangungacha bulgan davrga dalolatnoma buyicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-kurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan kabul kilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni kabul kilib olishni ta'minlash;
  - Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda kurib chikish va karor kabul kilish;
  - Pudratchiga ishlarni kabul kilish uchun zarur bulgan ijro xujjatlari ruyxatini takdim etish;
  - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni tulik xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada kuzda tutilgan uz majburiyatlarini bajarmasa yoki etarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida tulik mulkiy javob beradi.

## VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. SHartnoma G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab konuniy kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomada kuzda tutilgan loyixaga xujjatlari buyicha joriy tanirlash ishlarini bajaradi.
15. Tamirlash ishlari bajarish muddati 50 kalendar kunni tashkil etadi.

## VII. TULOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. SHartnoma buyicha uzaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «sumda» kilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma buyicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans utkazadi, bu 286 705 570 sumni tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maksadli berilgan mablaglar uch banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi.
19. Buyurtmachi tomonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib kabul kilingandan keyin xakikiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab kolgan xolda moliyalashtirish jadvali buyicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining xisob rakaniga tushadigan mablaglar ushbu ob'ekt kurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt kurilishiga zarur bulgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak tulash, ob'ekt kurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga tulash uchun va Ushbu ob'ekt kurilishining boshqa xarajatlariga kat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'yning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun kurilish montaj ishlari miqdori, xarajatleri tugrisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati tugrisidagi ma'lumotnoma xisob-varak-fakturani» uzi tuzib takdim kiladi. Buyurtmachi bajarilgan kurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib kabul kilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan kurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatleri tekshiruvidan sung Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan kabul kilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati tugrisidagi ma'lumotnoma-xisob-varak-faktura» asos buladi.
23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnoma buyicha ob'ektga mulk xukukini uzida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga kadar ob'ektning tasodifiy yuk kilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida buladi.

## VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi kurilish maydonida uz vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.
25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiksiz tanishish xukukiga egadir.
26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan utkaziladigan kurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chogida paydo buluvchi masalalarni xal kilish buyicha yigilishlarda muntazam ravishda katnashadi.
27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida kursatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan uz rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektida ishlarni bajarishni mustakil ravishda tashkil etadi.
28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiikishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning kurilish sifati ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.
29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniklasa, u xolda Pudratchi uz kuchlari bilan va kurilish qiymatini kupaytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda kayta bajarishga majburdir.
- Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga tulaydi.
30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni kabul kilib olinishi, utkazilgan sinovlar, materiallar uz vaktida etkazib berilmasligi bilan boglik tuxtab kolishlar, kurilish texnikasining ishdan chikishi tugrisidagi ma'lumotlar, shuningdek kurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.
- Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining kaydalaridan konikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida uz fikrini bayon kiladi.
- Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda kursatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini kurish majburiyatini uz zimmasiga oladi.

## IX. ENGIB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI

31. Agar ushbu shartnoma buyicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.
- Mazkur shartnoma buyicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.
32. Agar engib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya kilish uchun kanday choralar kurilishini muxokama kiladilar.
33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

## XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:
- barcha ishlarni tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
  - loyixaga xujjatlariga xamda kurilish me'yorlari, koidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifati;
  - uzi tomonidan kurilish uchun kulaniladigan kurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifati, ularning loyixaga xujjatlarida kursatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;
  - ishlarni kabul kilish va ob'ektidan foydalanishning kafolatli davrida aniklangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaktida bartaraf kilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish koidalari muvofikligini kafolatlaydi. Mavjud nuksonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida kayd etiladi. Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuksonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada kursatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy sununasini 5% mikdorida jarima solish xuquqiga ega.

## XII. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.

### 35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga boglik bulmagan sabablarga kura Pudratchi tomonidan bir oydan kup vaktga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga kupaygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari kurulish me'yorlari va koidalari nazarida tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

konun xujjatlariga muvofik boshka asoslar buyicha shartnomaning bekor kilinishini talab kilish xukukiga ega.

### 36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga boglik bulmagan sabablarga kura Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga tuxtatib kuyilganda;
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari unuman bajarilmaganda;

konun xujjatlariga muvofik boshka asoslar buyicha shartnomaning bekor kilinishini talab kilish xukukiga ega.

37. SHartnoma bekor kilinganda Buyurtmachi va Pudratchining kushma karoriga kura tugallanmagan kurulish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar kiymatini Pudratchiga tulaydi.

38. Mazkur shartnomani bekor kilishga karor kilgan tomon mazkur bulim koidasiga muvofik ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. SHartnoma bekor kilingan takdirde aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararini, shu jumladan boy berilgan foydani tulaydi.

40. SHartnomaning bir tomonlama bekor kilinishiga yul kuyilmaydi, konun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarde tutilgan xollar bundan mustasno.

## XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirde aybdor tomon: Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida, Uzbekiston Respublikasi «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisida» gi konunida, boshka konun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarde tutilgan tartibde javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga etkazilgan zararlarini koplaydi.

42. Mazkur shartnomada kuzda tutilgan va tegishli ilovalarda kursatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirde Buyurtmachi Pudratchi oldida kuyidagi xollarda javobgar buladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma buyicha buning okibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish kuzda tutilgan ishlarning bajarilmagan kismining 5% mikdorida jarima tulaydi;
- buyurtmachining xisob rakamiga maksadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablaglarini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga etkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% mikdorida jarima tulaydi;
- shartnomaga muvofik ishlarni bajarish jadvali buyicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishde kabul kilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu kabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% mikdorida jarima tulaydi;
- shartnoma shartlariga muvofik tayyor xolda kabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishde kabul kilishdan bosh tortsa shartnoma kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;

43. Mazkur shartnomada kuzda tutilgan va tegishli ilovalarda kursatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirde Pudratchi Buyurtmachi oldida kuyidagi xollarda mulkiy javobgar buladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmde ishlarni bajarsa, majburiyatlarining bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% mikdorida penya tulaydi.
- Iشلarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdorde bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga kadar tasdiklatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;
- Iشلarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% mikdorida jarima tulaydi;
- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi;
- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniklangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (un kundan ortik bulmagan) muddatda bartaraf kilmasa ushbu aniklangan kamchiliklar, nuksonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar kiymatining 5% mikdorida jarima tulaydi.

44. Agarde tomonlardan biri uz rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon rakamlarini, korxonatamasi yoki makomini notugri bersa va uzgarganligi tugrisidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% mikdorida jarima tulaydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tugri kelsa, aybdor tomon ikkinchi tamonga barcha zararlarini koplaydi, amaldagi konunlarda belgilangan tartibde.

46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tulaydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma kiymatining 30% oshmasligi kerak.

47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida tulov talabnomasi buyicha akseptsiz amalga oshirishga xaklidir.

## XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. SHartnomani bajarishda va bekor kilishda yoki uzgartirishda shuningdek etkazilgan zararlarini koplashda paydo buladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular konun xujjatlarida belgilangan tartibde sudga murojat kilishlari mumkin.

## XV. TOMONLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

49. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

50. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishde (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

51. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

**XVI. ALOXIDA SHARTLAR**

52. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bulgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va ogzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning uzaro kelishuvlari uz kuchini yukotadi.
53. Pudratchi kurilish ob'ektiga yoki uning aloxida kismilariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xukukiga ega bulmaydi.
54. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha uzgartirish va kushimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bulsa, xakikiy xisoblanadi.
55. Buyurtmachi bilan Pudratchi urtasidagi mazkur shartnomadan kelib chikmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar kanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga kushimchalar yoki uzgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiklashi kerak.
55. Agar Pudratchi shartnoma buyicha ishlar yakunlangandan keyin kurilish maydonida uziga tegishli mol-mulkni koldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi kurilish maydonini ozod kilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaklidir.
56. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-konun xujjatlariga K.K.S. tugrisida uzgartirishlar kiritilsa kayta kurib chikiladi.
57. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshka barcha xollar uchun amaldagi konun xujjatlari kullaniladi.
58. Mazkur shartnoma Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab konuniy kuchga kiradi.
58. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bulgan 2 nusxada tuzildi.
59. SHartnomani amal kilish muddati «31» Dekabr 2022 yilgacha.

**XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.**

**PUDRATCHI:**

**BUYURTMACHI:**

<b>"ALMERIN" MCHJ</b>	<b>Tuproqqala tuman Xokimligi</b>
Manzili: Чаккашолокор «Учкуприк» МФЙ, Т.Малик1,пр 6	Manzili: Tuprokkala tumani Mustaqillik ko'chasi 1-uy
Tel/faks: +998-94-119-7200	Tel/faks: 62-30-53-532
h/r: 20208000505533117001	sh/hr: 401722860332217011209018002
INN: 309600813	INN:307305183
OKONX: 61110	MFO : 00014    INN: 201122919
Bank: TOSHKENT KAPITALBANK, JSCB	Moliya Vazirligi G'aznachiligi
MFO: 01088	G'azna x/v : 23402000300100001010
	Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM



*Foris*

*M. P. Panchob*

**A.Salaev**

27.06.2022 йилдаги 1- сонли  
шартномага  
Илова №1

**Жадвал**

Тендер комиссиясининг қарорига асосан ютиб олинган объектнинг ойлар бўйича молиялаштирилиши ва ишларни бажариш графиги

№	Номи	КОД:	Жами молиялаш- тирилган маблаг	2022 йил ойлар бўйича молиялаштириш												
				1 чорак			2 чорак			3 чорак			4 чорак			
				январь	февраль	март	апрель	май	июнь	июль	август	сентябрь	октябрь	ноябрь	декабрь	
1	Аванс (30%)		286705570						286705570							
	Жорий таъмирлаш	42-33-900	668979666								573411142	95568524				
	<b>Жами:</b>		<b>955685236</b>						<b>286705570</b>	<b>573411142</b>	<b>95568524</b>					

